Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: 373.3.091.3:811.521.133
ORCID: 0009-0004-1492-8683

BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUV–TADQIQOTCHILIK ELEMENTLARI MAZMUNI

Olloqulova Farzona Umedillayevna
Termiz davlat pedagogika instituti p.f.f.d
E-mail: olloqulovafarzona93@gmail.com

Annotatsiya: Axborot jamiyati va zamonaviy ta'lim paradigmasi sharoitida ta'lim jarayonini optimallashtirish va o'quvchilarning faol bilim olishiga, xususan, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Muayyan yosh davrlarida odam intensiv kognitiv faollik, atrofdagi dunyoni tizimli tushunish istagi va turli hodisalarni idrok etishga analitik yondashuvni rivojlantirish bilan tavsiflangan sintetik rivojlanish bosqichini boshdan kechiradi. Bu tendensiya, ayniqsa, erta bolalik davrida, xususan, 6–10 yoshda, o'rganishga bo'lgan motivatsiya maksimal darajaga etganida, yangi bilimlarni o'zlashtirish va ushbu jarayon intensiv va maqsadli bo'lganda namoyon bo'ladi. Ta'kidlash kerakki, ilmiy–tadqiqot faoliyatiga intilish, yangi narsalarni o'rganishga intilish va ijodiy fikrlash qobiliyati har bir insonning universal xususiyatlari hisoblanadi. Erta yoshda bu qobiliyat obyektlar va hodisalar bilan faol o'zaro ta'sir qilish orqali atrofdagi dunyoni o'rganishga bo'lgan tabiiy istakda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ta'lim jarayonida bolada tanqidiy fikrlash asoslari, olingan natijalarni tahlil qilish va o'z tajribasiga asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyati rivojlanadi. O'quvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etish ijodiy yondashuvni rivojlantirish, tanqidiy tahlil qilish malakalarini shakllantirish, bilishning ilmiy usullarini egallash uchun sharoit yaratishni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: Tadqiqotchilik, ilmiy-tadqiqot faoliyati, tadqiqot elementlari, matn ustida ishlash, mantiqiylik, tahlil, ijodiy izlanish, qo'llash, baholash, konsentratsiya, qobiliyat.

THE CONTENT OF RESEARCH ELEMENTS IN PRIMARY SCHOOL MOTHER TONGUE LESSONS

Annotation: Of particular importance in the context of the information society and the modern educational paradigm are innovative approaches aimed at optimizing the educational process and attracting students to active knowledge, in particular, research activities. In certain age periods, a person experiences a stage of synthetic development characterized by intensive cognitive activity, a desire for a systematic understanding of the world around him and the development of an analytical approach to the perception of various phenomena. This trend is manifested especially in early childhood, in particular, at the age of 6-10, when the motivation for learning reaches its maximum, mastering new knowledge and this process is intensive and targeted. It should be noted that the desire for research activities, the desire to learn something new and the ability to think creatively are universal characteristics of each person.his trend is manifested especially in early childhood, in particular, at the age of 6-10, when the motivation for learning reaches its maximum, mastering new knowledge and this process is intensive and targeted. It should be noted that the desire for research activities, the desire to learn something new and the ability to think creatively

are universal characteristics of each person. At an early age, this ability is manifested in a natural desire to explore the surrounding world through active interaction with objects and phenomena. In addition, in the educational process, the child develops the basics of critical thinking, the ability to analyze the results obtained and draw conclusions based on his own experience. Effective organization of research activities of students provides for the development of a creative approach, the formation of critical analysis skills, the creation of conditions for mastering scientific methods of knowledge.

Keywords: Research, research activities, research elements, text work, logic, analysis, creative exploration, application, evaluation, concentration, ability.

СОДЕРЖАНИЕ УЧЕБНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ ЭЛЕМЕНТОВ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Аннотация: В условиях информационного общества и современной образовательной парадигмы особое значение приобретают инновационные подходы, направленные на оптимизацию образовательного процесса и вовлечение обучающихся в активное получение знаний, в частности, в научно-исследовательскую деятельность. В определенные возрастные периоды человек переживает синтетический этап развития, характеризующийся интенсивной познавательной активностью, стремлением к системному пониманию окружающего мира, выработкой аналитического подхода к восприятию различных явлений. Эта тенденция особенно проявляется в раннем детстве, особенно в возрасте 6-10 лет, когда мотивация к обучению достигает максимума, усвоение новых знаний и этот процесс становится интенсивным и целенаправленным. Следует отметить, что стремление к исследовательской деятельности, стремление узнавать новое и способность мыслить творчески являются универсальными характеристиками каждого человека. тенденция особенно в раннем детстве, особенно в возрасте 6-10 лет, когда мотивация к обучению достигает максимума, усвоение новых знаний и этот процесс становится интенсивным и целенаправленным. Следует отметить, что стремление к исследовательской деятельности, стремление узнавать новое и способность мыслить творчески являются универсальными характеристиками каждого человека. В раннем возрасте эта способность проявляется в естественном стремлении исследовать окружающий мир через активное взаимодействие с предметами и явлениями. Кроме того, в процессе обучения у ребенка развиваются основы критического мышления, умение анализировать полученные результаты и делать выводы на основе собственного опыта. Эффективная организация исследовательской деятельности учащихся предполагает создание условий для развития творческого подхода, формирования навыков критического анализа, овладения научными методами познания.

Ключевые слова: Исследовательская, научно-исследовательская деятельность, элементы исследования, работа над текстом, логика, анализ, творческий поиск, применение, оценка, концентрация, способности.

KIRISH. Maktab o‘quvchilarida konsentratsiyalangan o‘quv ko‘nikmalarini shakllantirish milliy ta’lim tizimi samaradorligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Yangilangan ta’lim paradigmasini joriy etish o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalar va usullar bilan ta’minlash, shuningdek, universal ta’lim faoliyatini rivojlantirishga e’tibor qaratgan holda ta’lim mazmunini xalqaro standartlarga muvofiq boyitishni nazarda tutadi. Tadqiqot jarayoniga jalb qilish nafaqat ularning bilim ufqlarini kengaytiradi, balki keyingi ongli ta’lim va

kasbiy o‘zini o‘zi belgilash uchun asos yaratadi.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha ishlarning samaradorligi ko‘p jihatdan ishni tashkil etish sifati, mezonlarning aniqligi, kichik yoshdagi o‘quvchilarning tadqiqot qobiliyatini baholash usullarining yetarliligi, tadqiqotning mazmuni bilan belgilanadi. Tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan o‘quv materiallari, o‘quvchilarning tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan usul va usullar.

Ta’kidlash kerakki, aynan o‘quv jarayonida o‘rganilgan tadqiqot faoliyatining elementlari ilmiy usullarni yanada rivojlantirishda fundamental tarkibiy qismlarga aylanadi. Ular o‘quvchilarga yechimlarni mustaqil izlash, analitik fikrlashni rivojlantirish va yangi g‘oyalar yaratish qobiliyatini shakllantirish uchun asos yaratadi. Shunday qilib, bolalarni ilmiy–tadqiqot faoliyatiga barvaqt jalb etish ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, ilmiy–texnikaviy taraqqiyotning jadal rivojlanishi sharoitida samarali mehnatga tayyorlikni shakllantirishda asosiy o‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ta’kidlash lozimki, dastlab tadqiqot usuli tabiiy fanlar doirasida vujudga kelgan bo‘lib, XX asrning boshlariga kelib pedagogik tizim sifatida shakllandi. Keyinchalik olimlar boshqa fan doirasida tadqiqotchilikni tadqiq qilish lozimligi haqida ilmiy izlanishlar olib borganlar. Bu borada bir qancha munozaralar bo‘lishiga qaramasdan, pedagoglarimiz yakdillik bilan ushbu tizimni aynan boshlang‘ich sinflarda qo‘llash samarali ekanligini tajribalarda ko‘rsatib berdilar, chunki kichik maktab yosh davrida o‘quvchilar tabiatiga ko‘ra faol, qiziquvchan, yangiliklarni izlash, tadqiq qilish va tushunishga intiladi. Shu o‘rinda ilmiy tadqiqot bilan o‘quv tadqiqotini umumiy va farqli jihatlarini bilish muhim. Har ikki tadqiqot turi uchun muammoni ifodalash, farazni olg‘a surish ya’ni taxminiy yechimni ko‘rsata olish, ilgari surilgan farazlarni amaliyotda kuzatish, nazariy tahlil bilan tekshirish, to‘g‘ri yechimlarni aniqlash, tekshirish va natijalarni qayt etish umumiy xususiyat hisoblanadi.

Rus pedagogi S.T.Shatskiy o‘quv tadqiqotining turli tiplarini tavsiflab, ta’kidlovchi, mantiqiy, umumlashtiruvchi tadqiqotlarni keltirib o‘tadi: Kuzatish orqali turli hodisa va narsalarning muhim belgilarini ko‘rsatib berish bu ta’kidlovchi tadqiqotning maqsadidir. Masalan, rang, tus, hajm, shakl, o‘lcham va boshqalar.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarida tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash muammolari xususida I.B.Askarov [1;93-b] tadqiqot olib borgan. Olimning ta’kidlashicha, bo‘lajak pedagoglarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash innovatsion texnologiyalar va amalda qo‘llash jarayonida va uning subyekti sifatida o‘ziga munosabat bo‘yicha faol tadqiqotchilik nuqtai-nazarini ta’minlovchi, integrativ shaxsiy tavsifi hisoblanadi.

S.Yaminov tadqiqot ishlarida senariyli o‘qitish yo‘llarini ko‘rsatib o‘tadi. Unda aynan tadqiqotchilik va faoliyatni tashkil etish borasida fikr bildirilmasada, mavzuga oid senariy tuzishning o‘zi ijodiy fikrlash tafakkur mustaqilligini talab qilishini ta’kidlaydi.

Shuningdek o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmasini shakllantirishda N.Narziyeva integrativ yondashuvga asoslanishi, bunga erishish uchun muammoga turli jihatlar bilan qarash va turli yechimlarni ko‘rsata olish, buning uchun esa barcha fan asoslaridan olingan bilimlarga asoslanish lozimligini ta’kidlaydi: “Tadqiqotchilik ko‘nikmasi o‘quvchining tadqiqot ishlarini bajarishga oid qobiliyatidir, tadqiqotchilik ko‘nikmasi o‘quvchi tomonidan alohida bilim va malakalarning egallanishi emas, balki har bir fan bo‘yicha integrativ bilimlar va

harakatlarning o‘zlashtirilishini hamda mustaqil ravishda ijodiy faoliyat olib borish” [2; 42-b].

O‘quvchining tadqiqotchilik salohiyati undagi ijodkorlik sifatlari bilan bog‘liq bo‘lib, bu izlanuvchi N.O‘rinova qayd etganidek, an’anaviy tafakkur qoliplaridan voz kechish tafakkurning moslashuvchanligi, inson fe’l-atvorining originallik, tashabbuskorlik va nostandartlik kabi bir qator xususiyatlari orqali o‘z aksini topadi [3; 49-b].

Yuqoridagi ma’lumotlarni tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish borasida maktab ta’lim mazmuni va o‘quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘naltirish tizimiga o‘zgartirishlar kiritish lozimligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ishimizning asosiy maqsadi konsentrizm asosida tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishning pedagogik texnologiyalarini amaliyotga tadbiq etish va yuqori samaradorlikka erishish hisoblanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida tadqiqotchilik elementlarini shakllantirish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Tadqiqotchilik elementlari o‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, mustaqil o‘rganish va yangi bilimlarni izlab topishga undaydi.

O‘quv-tadqiqot faoliyatining tarkibiy elementlari sirasiga matn ustida ishlash, mantiqiy, tahlil, ijodiy izlanish, qo‘llash, baholash kabi elementlarni kiritishimiz mumkin.

Keltirilgan har bir element o‘quv–tadqiqot faoliyatining asosi bo‘lib, ular yordamida tadqiqot maqsadi, yo‘nalishi va metodologiyasi ishlab chiqiladi, o‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalari tarkib topadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tadqiqotchilik elementlarini shakllantirish ona tili darslarida quyidagi element va usullardan foydalanilib tashkil etiladi:

Matn ustida ishlash – boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida berilgan o‘quv materialini o‘qish, tushunish, tahlil qilish, mazmunini hikoya qilib berish, savollar orqali voqealar rivoji va ketma–ketligini aniqlash, matn strukturasi, voqealarni bayon qilish uslubi, muallif g‘oya va maqsadini aniqlashga qaratilgan tadqiqotchilik elementidir. Bu o‘quv–tadqiqotning bir qismi bo‘lib, ilmiy ishning to‘g‘ri va aniq ifodalanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Matnlarni o‘qish qilish orqali o‘quvchi matnning qaysi uslubda yozilganligi, janri, undagi obrazlar xarakter xususiyatlari, voqealar kechayotgan joy, mavsum haqida axborot oladi, ularning mazmuniga oid xulosalar chiqarishga tanqidiy fikrlashga, badiiy tajriba orttirishga harakat yuzaga keladi. Masalan, o‘quvchilar matnning muallif maqsadini tushunishga harakat qiladi, muqobil yakunlarni taklif qilishga, maqbullarini izlab topishga o‘rganadi.

Mantiqiylik – o‘quv–tadqiqot faoliyatining asosiy elementlaridan biri, uni tashkil etish, olib borish, himoya qilish (muammolarni shakllantirish va yechimini ilgari surish, maqsadni qo‘yish va tadqiqotni nazariy va empirik vazifalarini aniqlash, shakllangan murakkab bilimning muammolari hal qilish uchun algoritm, metodlar, shakllar, uslublar, texnologiyalar kabi vositasini aniqlash) va bu jarayonlarning asosli va izchil bo‘lishini ta’minlaydi, ishning ishonchliligini va sifatini ta’minlashga xizmat qiladi (ijtimoiy ehtiyojni anglash, bir qancha g‘oyalarni ishlab chiqish, muammoga daxldor bo‘lganlarini ajratish, muammo yuzasidan nazariy va amaliy gipotezalarni asoslash, muqobillarini tanlay olish, umumlashtirish, xulosalar chiqarish, kashfiyotlar qilish). O‘quvchiga tadqiqot faoliyatini, o‘zining g‘oya, fikrlarini to‘g‘ri, aniq, ravon va izchil bayon qilishga o‘rgatadi.

O‘quvchilar bilan savol-javob asosida o‘tkaziladigan darslar ularni fikrlash va savol berishga o‘rgatadi. Savolni tizimli shakllantirish va unga javob topish tadqiqotda mantiqiylik elementini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘qituvchi savollarni shunday tuzishi lozimki, javoblar bir birini taqozo qilgan holda bir birini to‘ldirishi lozim.

Tahlil – mavjud muammo yuzasidan fikr yuritish, tafsilotlarni ajratib ko‘rsatish, ma’lumotlar orasidagi bog‘lanish va farqlarni aniqlash, yakuniy xulosa chiqarishga qaratilgan jarayondir. Tahlil yangi g‘oyalarni ishlab chiqishda, mavjud manbalarni, faktlarni, hodisa va jarayonlarni izchil o‘rganishda, bilimlarni chuqurroq egallashda namoyon bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv jarayonida muammo mohiyatini o‘rganish, maqsad muddaoni belgilash, faktlarni o‘rganish, aniqlash, yechimga olib boruvchi dalillarni qiyoslashda tahlil qilish ko‘nikmasi ahamiyatli.

Tahlil o‘quvchining muammo yuzasidan ma’lumotlarni topish, ular orasidagi o‘xshashlik va tafovutlarni aniqlash, savollar orqali muammo mohiyatini ochishga urinish, sabab va oqibat o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlash, to‘plangan axborotlar asosida asosli, mantiqiy xulosalar chiqarishida namoyon bo‘ladi.

O‘quvchilarni tahlil qilishga o‘rgatish kundalik hayot, ijtimoiy jamiyat, o‘quv–ilmiy faoliyatda o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan muhim element bo‘lib, u darslar davomida tizimli va uzluksiz beriladigan topshiriqlar, mashqlar, muammoli vaziyatlar, munozarali jarayonlar vositasida shakllantiriladi.

O‘quvchilarni diqqatini jamlash, kuzatuvchanligini oshirish, tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantirish maqsadida so‘zlarning yasalishi, ularni tahlil qilish, berilgan so‘zlarning ma’nosini tushuntirish, undagi asos so‘zlarni aniqlash, berilgan asos orqali turli yangi so‘zlarni topish va ularni gaplarda qo‘llash mashqlari, “Nima uchun qahramon bu vaziyatda shunday harakatlarni qildi?”, “Uning o‘rnida bo‘lganingizda qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz?”, “Bu gapda ega qayerda yoki kesim?” kabi tahliliy savollarni berish orqali, o‘zaro muhokama qilish ularda mantiqiy fikrlash, tahliliy tafakkur rivojlantiradi.

Ijodiy izlanish – muammolarni yangi va o‘ziga xos tarzda hal qilishga qaratilgan tadqiqotchilik faoliyati elementi. U o‘quvchining aqliy faoliyatini faollashtirishda, kreativlikni, ijodiy yondashishda, tasavvur traektoriyasini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Ijodiy-izlanish – tadqiqot bosqichlarini puxta o‘zlashtirish, muammo maqsadini aniqlash, maqsadga erishishning o‘ziga xos yo‘nalishlarini ko‘rsatish, tadqiq etish jarayonida obyektga daxldor voqealar, dalillar, vaziyatlardan o‘ziga xos tarzda foydalanish, shaxsning o‘zigagina xos bo‘lgan qobiliyat turidir.

Shuningdek, konsentrlangan o‘quv ko‘nikmalar vositalari yordamida o‘z individualligiga qarab yangi bilimlarni o‘zlashtirish, holatni o‘zgartirishda faol bo‘lish, mustaqil harakat va ijodiy xarakterdagi yechimlarni ko‘rsata olish, individual uslubini yaratish kabi xususiyatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quv–tadqiqot faoliyati jarayonida o‘quvchining muammo yechimini o‘ziga xos, alohida, noodatiy tarzda ko‘rsatib berishi, turli tuman yechimlarni taklif qilishi, barcha o‘zlashtirilgan ma’lumotlardan faoliyat jarayonida qo‘llash olishi bilan izohlanadi.

O‘quvchilarga kichik tadqiqot loyihalarini berish ularning o‘rganganlarini amalda qo‘llay olish imkonini beradi. Buning uchun mavzuga oid yangi so‘z, iboralarni o‘rganish ularning ma’nolari, qo‘llanish vaziyatlariga misollar keltirish, berilgan matn mazmunini tahlil qilish va sabab–oqibat bog‘lanishlarini aniqlash, ertak yoki hikoya asosida yangi yakun yaratish, ertak, hikoya

syujetiga teskari hikoya tuzish, matn qahramonlarining xarakter xususiyatlarini qarama qarshi xususiyatlarga ko‘chirib hikoya qilish kabi topshiriqlar orqali amalga oshiriladi;

o‘quvchilarga yangi so‘zlarni izlash, ularning ma’nosini lug‘atlardan topish va ularni tushuntirish topshirig‘ini berish orqali mustaqil izlanish va lug‘at boyligini oshirish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu faoliyatlar orqali ular lug‘at bilan ishlashni o‘rganadilar.

Qo‘llash – olingan bilim, egallangan ko‘nikma va malakalar safarbar etgan holda, tadqiqotchilik faoliyati jarayonni tashkil etish.

Tadqiqot jarayonida mustaqillikka ega bo‘lgan o‘quvchi qo‘yilgan vazifalarni mustaqil, ongli tarzda amalga oshira oladi, ona tili darslari doirasida kichik ilmiy tajribalar kichik tadqiqotlarni tashkil etadi. Masalan, yangi so‘zlarni qo‘llab matnlar tuzish yoki gaplarni shakllantirish, berilgan matn mazmuniga mos bo‘lgan yana yangi bir matnni yarata oladi va boshqalar orqali kashfiyotchilik faoliyatiga tayyorlanadi.

Shuningdek, darslar mobaynida kundalik turmushimizni og‘irini yengillatayotgan innovatsion vositalar, ilm-fanga yangilik sifatida kirgan terminlarning nomi va mazmunini tushuntirish, ularning ishlash mexanizmlarini ko‘rsatish va loyiha ishlarida konstruktirlik vazifalarini hal qilish o‘quvchining tafakkur dunyosini kengaytiradi, ilmiy-izlanishga bo‘lgan qiziqishi ortadi.

Baholash – o‘quvchining o‘quv-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish tartibini anglab etishi, amalga oshirilgan faoliyatning qiymatini belgilashi, undagi xato va kamchiliklarni ko‘ra olishi va o‘z o‘rnida bartaraf eta olishi, g‘oya va fikrlarini himoya qila olishi va yanada rivojlantirish strategiyalarini qura olishi bilan tavsiflanadi. Masalan, o‘zining harakatlari uchun o‘zi javob berishga tayyor bo‘lishi, qiyin vaziyatni hal qilish yo‘llarini aniqlash, xatolarni ko‘ra olishi, jamoadoshlari va o‘zining faoliyatini tahlil qilishi, ilmiy faoliyatda o‘ziga baho bera olishi.

XULOSA. Tadqiqotchilik faoliyati o‘quvchilarni faollikka, bilim olishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi va ularni har xil vaziyatlarda mustaqil yechim topishga o‘rgatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etish ko‘p qirrali va bosqichma–bosqich jarayon bo‘lib, tizimli yondashuvni va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga moslashishni talab qiladi. Bu jarayonni, ayniqsa, ona tili darslari doirasidagi mazmuni o‘rganilayotgan mavzular bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi kerak bo‘lgan kichik tadqiqot topshiriqlarini bajarishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Muhim jihat bolalarni zamonaviy ilm-fanning asosiy yutuqlari bilan tanishtirishdir, bu nafaqat ularning dunyoqarashini kengaytiradi, balki tadqiqot ishlarining tuzilishi va usullari haqida dastlabki g‘oyalarni ham shakllantiradi. Bu nafaqat nazariy bilimlarni etkazish, balki innovatsion texnologiyalarning ishlash tamoyillari, ularning asosiy xususiyatlari, terminologiyasi, funksional maqsadi va insonning kundalik hayotiga ta’sirini tushuntirish ham muhimdir. Bunday yondashuv nafaqat kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga, balki zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lgan ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga ham yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Askarov I.B. Basic stages of process of preparation to researchactivity of preparation of future professional education teachers. Eastern Evropean Seintific Journal. Germany, 2016. № -5. – P. 93 b

2. Narziyeva N. O‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini integrativ yondashuv asosida shakllantirishda muammoli ta’limning o‘rni // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2017. – № 4.– B. 37 – 42.

3. O‘rinova N.M. Pedagoglarda ijodkorlik qobiliyatini uzluksiz rivojlantirish usullari // Uzluksiz ta’lim. – Toshkent, 2013. – № 1. – B. 49

4. Boltaeva Sh. Boshlang’ich ta’limda o’quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy–pedagogik asoslarini takomillashtirish: Ped. fan. fals. dok. (RhD) ... diss. avtoref. – Samarqand, 2019. – 46 b.

5. Rajabova I. O‘qitish jarayoniga tizimli tafakkur va ilmiy tadqiqotchilik nuqtai nazaridan yondashish // Kasb–hunar ta’limi. – Toshkent, 2013. – № 1. – B. 28 – 32

6. Djiemuratova G. O‘quvchilarda kreativ vazifalar hosil bo‘lishning pedagogik–psixologik asoslari // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2011. – № 4. – B. 118 120.